

OLIY TA'LIMDA AKADEMIK MOBILLIK JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Farmonova Z.S.¹

Annotatsiya:

Mazkur maqola oliy ta'lim tizimida akademik mobillik jarayonlarini tashkil etish va boshqarishning nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Bu talabalar va professor-o'qituvchilarning xorijiy oliy ta'lim muassasalarida qisqa yoki uzoq muddatli ta'lim va ilmiy faoliyat olib borishi ta'lim sifatini oshirish, ilg'or tajribalarni joriy etish hamda madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, strategik rejalashtirish, tashkiliy muvofiqlashtirish, akademik jarayonlarni kelishish, kreditlarni o'zaro tan olish, hujjatlashtirish hamda monitoring tizimini yo'lga qo'yish masalalari tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida akademik mobillik jarayonlarini kompleks va samarali boshqarishga qaratilgan besh bosqichli integratsiyalashgan model taklif etiladi. Mazkur model oliy ta'lim muassasalarida mobillik jarayonlarining shaffofligini ta'minlash, kreditlar tan olinishini soddalashtirish va xalqaro hamkorlik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Akademik mobillik, xalqaro hamkorlik, kredit transferi, ta'lim sifati, boshqaruv mexanizmlari, monitoring, internatsionalizatsiya, strategik rejalashtirish.

Globalizatsiya jarayoni va bilim iqtisodiyotining rivojlanishi oliy ta'lim tizimida akademik mobillikning ahamiyatini orttirgan. Akademik mobillik – bu talabalar, professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning xalqaro va ichki darajada ta'lim, ilmiy-tadqiqot va professional tajriba almashinuvi jarayonidir. U nafaqat individual bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga, balki oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi. Akademik ta'limning xalqaro mobillik oliy standartlari va strategiyasining muhim elementi hisoblanadi. U talaba va professor-o'qituvchilarning boshqa mamlakatlarda qisqa yoki uzoq muddatli ta'lim olish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, tajriba almashish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

- Kredit mobilligi — talaba bir semestr yoki bir o'quv yili davomida xorijiy OTMda o'qiydi.

- To'liq darajali mobillik — talaba xorijiy OTMda bakalavriat, magistratura yoki doktorantura dasturini yakunlaydi.

- Professor-o'qituvchilar mobilligi — qisqa muddatli ma'ruza, ilmiy tadqiqot yoki malaka oshirish.

- Virtual/gibrid mobillik — masofaviy ta'lim va elektron platformalar orqali amalga oshiriladi.

Akademik mobillik ta'lim sifatini oshirish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish, ilmiy hamkorlikni kengaytirish va talabalarni global mehnat bozoriga tayyorlashga xizmat qiladi. Mobillik samaradorligini quyidagi mezonlar bilan baholash mumkin:

- ishtirokchilar soni
- kreditlarni tan olish darajasi
- talabalar va professorlarning qoniqish indeksi
- ilmiy maqolalar va qo'shma loyihalar ko'rsatkichi
- xalqaro reytinglarga ta'siri

Monitoring natijalari asosida mobillik siyosati takomillashtiriladi.

Nazariy asos va akademik mobillik turlari.

¹ Farmonova Zilola Sobir qizi, Samarqand State Institute of Foreign Languages, English filology and translation 2-bosqich talabasi

Akademik mobillik – bu o'qituvchilar va talabalarning kelishuv asosida ma'lum muddatga mamlakat ichidagi yoki xorijiy oliy ta'lim muassalarida o'qish yoki dars berish imkoniyatidir. Bundan tashqari talaba almashinuvining ikki asosiy turi mavjud.

1. Erkin harakatlanuvchilar – talabalar o'z tashabbusi bilan boshqa mamlakat yoki hududdagi universitetda ta'lim oladi.

2. Dastur doirasidagi talabalar – bunday holatda universitet yoki fakultet boshqa oliy ta'lim muassasasi bilan hamkorlik shartnomasi tuzadi va shu asosda almashinuv dasturlarini yo'lga qo'yadi. Ushbu dasturlar Respublika miqyosida ham, xalqaro darajada ham tashkil etilishi mumkin.

Talaba almashinuvi qanday amalga oshiriladi?

Talaba o'zi ta'lim olayotgan oliy ta'lim muassasi bilan hamkorlik qiluvchi xorijiy yoki respublikadagi universitetlardan birida uzoq bo'lmagan muddatga ta'lim olish imkoniyatiga ega. Shu bilan birgalikda almashinuv dasturlari ham 2 ta asosiy guruhlariga bo'linadi.

1. Qisqa muddatli – bunda talaba 1 haftadan 3 oygacha bo'lgan muddatda ta'lim olishi kerek.

2. Uzoq muddatli – bunday holatda talaba 6 oydan 1 yilgacha bo'lgan muddatda talim oladi.

Bunday almashinuv dasturlari orqali talabalar bilim saviyasini oshiradi, ta'lim jarayonining sifati yaxshilanadi va bu samaradorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Akademik mobillikning maqsad va vazifalari;

Mazkur jarayonda talaba va pedagoglarning mahalliy yoki xorijiy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish va raqobatbardosh kadrlarni sonini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, innovatsion o'qitish usullarini joriy etish, global hamkorlikni mustahkamlash va diplomlarning tan olinishi kabi vazifalar amalga oshiriladi.[2]

Asosiy maqsadlari:

1. Talim samaradorligini yuksaltirish: Talabalarning jahon standartlariga muvofiq ta'lim olishga imkoniyat yaratish.

2. O'zaro malaka va tajribalar almashinuvi: Talab va pedagoglarda keng dunyoqarashni shakllantirish, zamonaviy xalqaro tajribalarni o'zlashtirish.

3. Bandlik sohasida kuchli raqobat qila olish qobiliyati: Egallangan tajriba va malakalar orqali bitiruvchilarning darajasini ishirish.[3]

Asosiy vazifalari:

1. Ta'lim jarayonida talab va pedagoglarning mobilligi: Boshqa oliy ta'limlarda o'qish va o'qitish jarayonlarini kredit-modul tizimi orqali yo'lga qo'yish.

2. Uzoq muddatli shartnomalar tuzish: Xorijiy va mamlakat miqyosidagi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.

3. O'quv dasturlarini uyg'unlashtirish: Ta'lim trayektoriyasini jahon standartlariga moslashtirish va Kredit-modul tizimini oliy ta'lim muassasalari tomonida tan olishini yaratish.

4. Til va madaniyat sohasini chuqur o'rganish: Talab va o'qituvchilar orqali xorijiy tillarni amaliyotda samarali qo'llash va madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlash

Xalqaro dasturlar va amaliy tajribalar

Oliy ta'limda akademik mobillik boyicha butun dunyoda eng mashxur bo'lgan 3 ta eng kuchli xalqaro dasturlar – ERASMUS, FULBRIGHT PROGRAM, DAAD.

Erasmus – Yevropa ittifoqining ta'lim, yoshlar va sportni qo'llab-quvvatlovchi, talabalar va pedagoglar uchun Yevropada bepul talim olish dasturi yo'lga qo'yiladi. 2014-yildan buyon bakalavr, magistratura va doktorantura talabalariga o'zaro almashinuv (1-2 semestr) hamda to'liq magistrlik dasturlarini taklif etadi. Bundan tashqari 27 ta YI a'zosi va 6 ta Yevropa mamlakatlarida, shu bilan birga, hamkor davlatlar, shu jumladan O'zbekiston ham ishtirok etishi mumkin. Erasmusni bir qancha avvaliklari bor --- moliyaviy qo'llab-quvvatlash beradi ya'ni o'qish to'lovlari va grantlar. Shu bilan birgalikda Xalqaro darajadagi sertifikat bilan ham taqdirlaydi.

Fulbright Program – AQSH davlati departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan, dunyo bo'ylab akademik almashinuvni qo'llab quvvatlovchi va obro'li to'liq grant parogrammlaridan biridir. O'zbekistonlik talab av mutaxassislar AQSHda magistratura, izlanishlar olib borish va o'qitish imkoniyatini beradi. Bu dastur o'qish, yashash, viza va borib kelish aviachipta xarajatlarini to'liq qoplab beradi. U yerda yuqori malakali mataxassislar va olimlar uchun malaka almashish maqsadida qisqa muddatli loyilar. U yerda o'qish uchun ingliz tilini mukammal bilish (TOEFL/IELTS) talab etiladi.

DAAD – Germaniya Akademik Almashinuv Xizmati. Bu dastur rivojlanayotgan davlatlar talabalari uchun Germaniyada magistrature va doktorantura bosqichlarida bepul ta'lim olish imkoniyatini beruvchi nufuzli stipendiya dasturlaridan biri hisoblanadi. Dastur 10 oydan 24 oygacha bo'lgan muddatda yashash, sug'urta va o'qish to'lovlarini qoplab beradi. Hujjatlar ingliz va nemis tilida va asosan onlayn portal orqali qabul qilinadi. Oyiga taxminan 934-1200 yevro stipendiya beriladi. Bu yerda deyarli barcha yo'nalishlar boyicha taxsil olish mumkin. Nomzodlarga qulay bolishi uchun bir vaqtning o'zida 1 tadan 3 tagacha universitet va yo'nalishga hujjat topshirish mumkin.

Akademik mobillik oliy ta'lim sifatini yaxshilash, xorij davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda talabalar va pedagoglarning ilmiy salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Erasmus, Fulbright va DAAD kabi xorijiy dasturlar talab av professorlarga malaka oshirish, ilmiy izlanishlar olib boorish shu bilan birga global ilmiy tarmoq yaratish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Shu bilan birga, akademik mobillik nafaqat ta'lim darajasini oshiradi, balki universitetlar o'rtasida, turli xil mamlakatlar bilan va xalqaro miqyosda ko'p yillik hamkorlikni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi

Takliflar.

Axborot va monitoring tizimini kengroq tashkil etish. Bu orqali talaba va professorlarning mobillik faoliyatini elektron tizimda baxolash va kuzatish tavsiya etiladi.

Til va malakani oshirish – talabalar va pedagoglar uchun tur xildagi til kurslari va ilmiy metodologiya mashg'ulotlarini joriy etish, shuningdek, jahon standartlariga mos ilmiy salohiyat darajasini rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yeldashev G, Karimova G. ^ Pedagogning kasbiy komponentligi va mahorati^ o'quv-uslubi majmua. 2020 yil.
2. 3. Ishmuhammedov R Tarbiyada innavatsion texnologiyalar. 2010. 141-bet. [http://www.osp.ru/lan/2001/04/024.htm`](http://www.osp.ru/lan/2001/04/024.htm)
3. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahurat. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi. 2006.
4. Mamatova Ya, Sulaynonova S. O'zbekiston media ta'lim taraqqiyoti yo'lida. 2016. 94-bet.
5. To'lqin Eshbek. Mediata'lim: yangi ta'lim usuli sifatida. <http://sharh.uz/munosabat/item/17008-mediatalim-axborot-tv-radio-internet>